

KOREYS TILIDAGI IBORALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI

Suyunova Fotima Sherzod qizi

Filalogiya va tillarni o'qitish koreys tili yo'nalishi 1-kurs 2503-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada koreys tilidagi iboralarni o'zbek tiliga tarjima qilish usullari borasidagi ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Iboralar, Fraziologik birliklar, stilistik funksiya, frazeologik chatishmalar.*

Iboralar ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Fraziologik birliklar tarjima nazariyasi va amaliyotining eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Fraziologizmlar murakkabligi quyidagilarga bog'liq birinchidan bir xil moddiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar turli tillarda turlicha ma'no va stilistik funksiya (vazifa) larni bajaradi, ikkinchidan, bunday so'zlar turli tillarda turh so'zlar bilan birikib keladi. Har bir xalqning tili ma'naviy va moddiy qadriyatlarni asrab -avaylash va rivojlantirishda ulkan rol o'ynaydi.

Chet tillarini o'qitishga qo'yiladigan talablar doimiy ravishda ortib bormoqda. Tilni o'zlashtirgan holda, inson bir vaqtning o'zida yangi milliy madaniyatga kirib boradi va tilda saqlanadigan ulkan boylikni oladi. Maktab va oliy o'quv yurtlarida talabalarga mukammal ta'lim berish imkoniyatlari endi kengaymoqda. Bugungi kunda xorijiy tillarni biladigan kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda sharq tillarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chet tillarni jumladan, frazeologik birliklarga ayniqsa boy koreys tilini yaxshi bilish, uning frazeologiyasini bilmasdan turib mumkin emas. Tarjimonlar tarjima jarayonida tilning madaniy xususiyatlari bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladilar, ya'ni maqsad tilida muqobil bo'lmagan ayrim so'z, ibora va idiomalarning ma'nosini topishda muammolar paydo bo'ladi.

Frazeologizmlar ikki guruhdan iborat:

Birinchi guruh frazeologik chatishmalar bo'lib, bunday birikmalarning ko'chma ma'nosi ularning tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'lmaydi.

2023 교사학술대회

'눈 감아 주다 iborasini olaylik. Bu iborani o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilpe ma'nolari butunlay o'zgarib ketadi. Iborani o'zbek tiliga 'Ko'z yummoq yani bo'l ish-harakatga rozi bo'lish ma'nosini beradi. Bunga misol qilib bir nechta gaplar keltirama

한 번만 눈 감아 주세요. 다음에는 이런 실수 없을 거예요 Bir marta ko'z yuming.
Keyingi safar bunday xatolar bo'lmaydi.

김 대리가 이번 실수는 눈 감아 달라고 했어요.

Menejer yordamchisi Kim mendan bu xatoga ko'z yumushimni so'radi.

Bu ikkala misolda ham ibora ma'nosi yaxlit holda 'ko'z yummoq deb tarjima qilina di.

Ikkinchi guruh - Frazelogik birikuvlar: bularda tarkibidagi so'zlarning ma'lum bir qismigina ko'chma ma'noga ega, birikmaning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga bog'liq.

'입이 무겁다' iborasini olsak, bu ibora tarkibidiga so'zlar tarjimada so'zlarga bog'lanadi
Buni bir nechta misollar bilan tushuntiramiz.

수지는 입이 무거워서 비밀 이야기를 말해도 걱정이 없다.

Syuzining og'zi mahkam, shuning uchun simi aytsangiz ham xavotirga o'qin yo'q.

내 친구들은 다 입이 무거우니까 걱정하지 마.

Xavotir olmang mening do'stlarimning hammasini og'zi mahkam.

사회생활을 하려면 입이 무거워야 한다.

Agar siz jamiyatda hayot kechirmoqchi bo'lsangiz og'zingiz mahkam bo'lish kerak.

Frazelogiya birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjimon u turg'un yoki o'zgaruvchan so'z birikmasi bilan ishlayotganini farqlay olishi kerak. Buning uchun ulkan "frazelogizmlarning resektiv zapasi"ga ega bo'lishi lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, so'z birikmalarga, xuddi so'zlar kabi, ko'p ma'nolilik va omonimiya hodisasi xos, shunday bo'lsada ma'nolardan biri va boshqasi frazeologizm omonim bo'lishi mumkin.

Koreys frazeologiyalarning o'zbek tiliga tarjima asnosida yana bir holatga e'tibor berib o'tishimiz lozim. Bular frazeologik birliklarning uchta asosiy turga ajralishini ko'rib chiqishimiz mumkin.

1. Frazelogik bitimlar bular ma'nosi jihatidan bir-biriga mos kelmaydigan

frazelogik birliklar, ularning butun ma'nosi tarkibiy so'zlarning ma'nolari bilan mutlaqo asoslanmagan bo'ladi.

<고래 싸움에 새우 등 터진다>, bu misolda tom ma'noda "kitlar kurashida qisqichbaqalarning beli sinadi" deb tarjima qilingan, bu ibora o'zbek tilida "xo'jayinlar jang qiladi, xizmatlarning peshonasi yorilib ketadi" degan ma'noga ega.

원숭이도 나무에서 떨어질 때가 있다. Bu so'zma-so'z tarjima qilinganda hatto maymunlar ham bo'zan daraxtlardan tushadi" degan ma'noni anglatadi. Boshqa chet tillarida

bunday frazeologik birliklarning ekvivalentlari mavjud. Masalan, o'zbek tilida hamma aniq eshitgan shunga o'xshash frazeologik birlik mavjud.

2. Frazeologik birlashish bu frazeologik birliklar, ularning yaxlit ma'nosi tarkibiy qismlarning ma'nosidan iborat va shu bilan birga tarkibiy qismlardan biri birlashma deb ataladi.

백지장도 맞들면 낫다. ushbu ibora o'zbek tiliga tarjima qilinganda "hatto bir varaq qog'ozni ham birga ko'tarish oson". Har qanday biznes bir necha kishi uni birga qabul yuritganda tezroq amalga oshadi. O'zbek nutqida siz "bir bosh yaxshi, lekin ikkitasi yaxshiroq iborasiga duch kelgan bo'lishingiz mumkin. U bitta koreyscha frazeologik birlikning analogidir.

Masalan, koreys tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri "so'zlar oddiy deb tarjima qilingan "말은 쉽다" iborasi mavjud, ammo uni biroz boshqacha tushunish kerak.

3. Frazeologik birlashma tuzilishining bo'linishiga qaramay, ular umumlashtirilgan yaxlit ma'noga ega bo'ladi.

Bundan tashqari yana bir nechta tilida "hayratlanish" obrazi quyidagi ko'pgina frazeologik birliklar ko'p ma'nolilikka ega hamda turli xil obrazlarni aks ettiradi.

입을 다물지 못하다 (og'zini yopolmaslik) "hayratlanmoq, tildan qolmoq (qo'rqinchdan), qoyil qolish".

눈이 동그래지다 (ko'zini katta qilmoq) "hayratlanmoq, hayron qolmoq"

혀를 내두르다 (두르다) (til hayratda qolmoq), "kutilmagan narsadan hayratlanish

Ko'zlar orqa tovoq kattaligiga aylanadi (juda hayron qolish).

Yuqorida sanab o'tilgan frazeologik birliklar tarjimada juda qol keladi. Chunki badiiy adabiyotda bu birliklar so'zlarni jozibali tarjima qilishga yordam beradi.

Shular bilan birgalikda o'zbek tiliga tarjima qilingan "눈코 뜰 새 없다" iborasi "Burun va ko'zni ochishga ham vaqt yo'q" deb tarjima qilingan. Bu idioma odam juda band bo'lgan va bo'sh vaqti bo'lmaganda ishlatiladi.

Shuni xulosa qilib aytish joizki, tarjimachi tarjimada iboralar ustida ishlashi uning tarjima sohasidagi bilimlarini yanada oshirishga va keng fikrlashga undaydi. Tillar o'rtasida iboralarni tarjima qilish qanchalik katta mashaqqat bo'lmasin ularni til o'rganishda shunchalik katta samara berishini bilmoq lozim.

Foydalangan adabiyotlar

1. Kim A. T. Toshkent davlatida koreys tili va adabiyotini o‘rganish muammolari Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti. - 10 yildan keyin. (Koreys assotsiatsiyasining 10 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston madaniyat markazlari. Toshkent-Seul. 2001, p. 67-71;
2. Kim G.N. Postsovet davridagi Markaziy Osiyoda koreysshunoslikning holati va istiqbollari haqida. - koreyslar va Markaziy Osiyo mintaqasi, Ikkinchi Qozog‘iston-Koreya xalqaro konferensiyasi. 2-son, 2002 yil.
3. Kim Germaniya Qozog‘iston va Markaziy Osiyoda koreysshunoslik: o‘tmish, bugun va kelajak. - bilan. 58-63
4. Kitaygorodskaya G.A. "Chet tillarini intensiv o‘qitish tamoyillari" In J. «Maktabda chet tillari», M. 2008 yil, 6-son
5. Li B. S. “Koreys tili va adabiyoti bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash muammolari to‘g‘risida”. nomidagi TOSHGU “Koreys tili va adabiyoti o‘qituvchilarining Markaziy Osiyo konferensiyasi materiallari”ga qarang. Nizomiy, 2004 yil.